Аннотация: So'nggi yillarda hududlarda islomiy moliya mahsulotlari joriy etila boshlagan bo'lsa-da, ularning qamrovi hanuzgacha nisbatan kichik va cheklangan darajada saqlanib qolmoqda. Shu bois, ushbu maqola tadbirkorlarning islomiy investitsiyalardan foydalanish niyatlarini shakllantiruvchi asosiy omillarni o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot 2024-yilda o'tkazilgan onlayn so'rovnoma asosida yig'ilgan ma'lumotlarning PLS-SEM modeli yordamida tahlil qilinishi orqali amalga oshirildi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, islomiy investitsiyalardan foydalanish bo'yicha tadbirkorlar niyatlariga bir qator omillar ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bular qatoriga islomiy moliyaning biznesni rivojlantirishdagi salohiyati, mavjud qonunchilik, xulq-atvor ustidan nazorat, xabardorlik va bilim darajasi, Dasturiy majburiyatlar hamda hukumat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlov kiradi. Mazkur tadqiqot tadbirkorlar tomonidan islomiy investitsiyalarni kengroq qo'llash uchun zarur bo'lgan omillarni aniqlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ключевые слова: PLS-SEM модели, тadbirkorlar, islomiy investitsiyalar, islomiy investitsiyalardan foydalanish niyati, xabardorlik va bilim darajasi, qonunchilik, Dasturiy majburiyat, xulq-atvor ustidan nazorat.



KIRISH

O'zbekiston aholisi tarkibining 94 foizdan ortig'ini musulmonlar tashkil etishi mamlakatda islomiy moliya tizimiga nisbatan barqaror ijtimoiy qiziqishning shakllanishiga zamin yaratmoqda. So'nggi yillarda ushbu sohaga e'tibor ortib borayotgan bo'lishiga qaramay, uning to'laqonli rivojlanishi uchun zarur bo'lgan huquqiy mexanizmlar hali to'liq shakllanmagan. Bu esa islomiy moliya xizmatlarining keng omma va, ayniqsa, tadbirkorlar uchun samarali taqdim etilishini institutsional o'rganishni taqazo qiladi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil oxirida Oliy Majlisga Murojaatnomasi¹da islomiy moliyaviy xizmatlarni joriy etish uchun zarur bo'lgan huquqiy asosni yaratish masalasi kun tartibiga qo'yilgani dolzarb va istiqbolli tashabbus bo'ldi.

Islomiy moliyaning joriy etilishi mamlakatda nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, balki aholining diniy va madaniy qadriyatlariga mos yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Bunday huquqiy asoslarning yaratilishi respublika iqtisodiy salohiyatining yanada kuchayishiga, islomiy moliyaviy xizmatlar sohasida yangi institutlarning shakllanishiga turtki beradi.

Shuningdek, 2023-yil 16-iyun kuni O'zbekiston Prezidentligiga nomzod Shavkat Mirziyoyev Namangan shahrida saylovchilar bilan uchrashuvda bildirilgan "Namanganlik tadbirkorlar xususiy bank ochish tashabbusi bilan chiqsa, biz albatta ularni qo'llab-quvvatlaymiz. Tadbirkorlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning muqobil tizimlari joriy qilinadi. Jumladan, Namanganda islom moliyaviy xizmatlariga keng yo'l ochib beriladi"², degan fikrlari hukumat darajasida bu yo'nalishga nisbatan faol siyosiy va institutsional qo'llab-quvvatlov mavjudligini tasdiqlaydi.

Bugungi kunda O'zbekistonda Islom Taraqqiyot Banki guruhi tomonidan murobaha va ijara asosidagi moliyalashtirish xizmatlari bir qator tijorat banklari, jumladan, "Kapitalbank", "O'zsanoatqurilishbank", "Trastbank", "Asia Alliance Bank", "Turonbank" kabi moliyaviy institutlar orqali bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Shuningdek, "Iman Invest" kabi islomiy investitsiya kompaniyalari tomonidan mudoraba shartnomasi asosida investitsiya jalb qilish amaliyoti shakllanmoqda. Ushbu tashabbuslar islomiy moliya tizimining dastlabki institutsional negizini shakllantirishda muhim qadam bo'lib xizmat qilmoqda.

Garchi mazkur xizmatlar hozircha ilk bosqichda bo'lsa-da, ularning amaliyotda sinovdan o'tkazilishi va aholining ularga nisbatan ishonch bildirga boshlagani ijobiy natijalarga zamin yaratmoqda. Ayniqsa, hududlarda islomiy moliyaviy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojning ortib borayotgani ushbu yo'nalishda xizmatlar ko'lamini kengaytirish va ularni hududiy ixtisoslashgan ehtiyojlarga moslashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Shu nuqtai nazardan, mazkur maqola O'zbekistonda tadbirkorlarning islomiy investitsiyalardan foydalanish bo'yicha niyatlariga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillarni empirik jihatdan aniqlash va baholashga qaratilgan. Tadqiqot natijalari islomiy investitsiyalar bozorining yanada faollashuviga, sohaga nisbatan ishonchning kuchayishiga hamda hududlardagi tadbirkorlik faoliyatining muqobil moliyaviy manbalar orqali qo'llab-quvvatlanishiga xizmat qiladigan mexanizmlarni takomillashtirishda amaliy va nazariy ahamiyatga ega.

Xususan, aniqlangan determinant omillar asosida islomiy moliya xizmatlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan qonunchilik asoslarini rivojlantirish, moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish, hamda diniy qadriyatlar bilan uyg'un islomiy investitsiya vositalarini ommalashtirish yo'nalishlarida strategik qarorlar ishlab chiqish uchun puxta ilmiy asos yaratiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

PLS-SEM modelimizda foydalanilgan o'zgaruvchi (omil)larning ko'pchiligi bizdan oldin qilingan tadqiqotlarni ko'rib chiqish orqali tanlab olingan. Xususan, "islomiy investitsiyalardan foydalanish niyatining determinantlarini o'rganish ko'plab ilmiy ishlarga S.Z. Maryam va boshq. (2021), M.A. Jaffar va bosh. (2016), S. Lujja va bosh. (2016), N.S. Mahdzan (2017), I. Butt va bosh. (2011)"³ obyekt bo'lib, "ular tez-tez asosli harakatlar nazariyasini

1 <https://president.uz/oz/lists/view/4057>

2 <https://uza.uz/oz/theme/111>

3 S.Z. Maryam, A. Ahmad, N. Aslam, S. Farooq, Reputation and cost benefits for attitude and adoption intention among potential customers using theory of planned behavior: an empirical evidence from Pakistan, J. Islam. Mark (2021) ahead- of-print, doi:10.1108/JIMA- 03-2021-0059.

M.A. Jaffar, R. Musa, Determinants of attitude and intention towards Islamic financing adoption among non-users, Procedia Econ. Financ. 37 (2016) 227-233.

S. Lujja, M. Omar Mohammad, R. Hassan, Modeling public behavioral intention to adopt Islamic banking in Uganda: the theory of reasoned action, Int. J. Islam. Middle East. Financ. Manag. 9 (2016) 583-600.

N.S. Mahdzan, R. Zainudin, S.F. Au, The adoption of Islamic banking services in Malaysia, J. Islam. Mark. 8 (2017) 496-512.

I. Butt, N. Saleem, H. Ahmed, M. Altaf, K. Jaffer, J. Mahmood, Barriers to adoption of Islamic banking in Pakistan, J. Islam. Mark. 2 (3) (2011) 259-273, doi:10.1108/1759083111116 4787.



(TRA) M.Fishbein va I.Ajzen (1980)⁴ va “rejalashtirilgan xatti-harakatlar nazariyasi (TPB)dan foydalanishgan I.Ajzen (1991)⁵. “TRANing kengaytmasi sifatida TPB islom moliyasiga munosabat, subyektiv normalar va xulq-atvor nazorati individual niyatga ijobiy ta’sir ko’rsatishini aniqlashgan I.Ajzen (2011)⁶”. “TRA asosida, Amin va bosh. (2011)⁷larning tadqiqotlarida ijtimoiy ta’sir, islom moliyasiga munosabat va islomiy investitsiyalarning iqtisodiy foydaliligi islom moliyasidan foydalanish niyatiga ijobiy ta’sir ko’rsatishi isbotlandi.

Bundan tashqari, “Aziz va Afaq (2018)⁸ islom moliyasiga munosabat va subyektiv normalar Pokistonda islom bank xizmatlaridan foydalanish niyatiga ijobiy ta’sir qilishini aniqladilar, shuningdek, ular noaniqlik, xabardorlik, muvofiqlik va nisbiy afzalliklarni munosabatni belgilovchi omillar sifatida aniqladilar. Xuddi shunday, “N.S. Mahdzan va bosh. (2017)⁹ islom bank konsepsiyalarini tushunish va qabul qilingan afzallik islom bank xizmatlarini qabul qilishga ijobiy ta’sir qilishini topishdi. “Mbawuni va Nimako (2017)¹⁰ islom moliyasiga munosabat, bilim, xabardorlik, islom qonunlariga rioya qilishga tayyorlik va idrok etilgan foydalar islom bank xizmatlarini qabul qilish niyatining eng muhim omili ekanligini empirik tarzda tasdiqladilar. Halol sanoatida Jaffar va Muso (2014)¹¹ islom moliyasiga munosabatni belgilovchi omillar sifatida xabardorlik, Dasturiy majburiyat, xarajatlardan foyda, biznesni qo’llab-quvvatlash va obro’-e’tibor kabi omillardan foydalanishni taklif qilishdi. Ular subyektiv normalar, munosabat va xulq-atvor nazorati biznesda islomiy investitsiyalarni qabul qilish niyatiga ijobiy ta’sir qilishini ta’kidladilar. Bu o’zgaruvchilar o’rtasidagi munosabatlar keyinchalik Jaffar va Muso (2016)¹² tomonidan ilmiy tadqiqotlarida isbotlangan.

Shuningdek, “Omar Boubker va bosh., (2021)¹³ni tadqiqotlarida islomiy investitsiyalarning narxi, islom moliya institutlarining obro’si, Dasturiy majburiyat va boshqa omillar ham ko’rib chiqilgan. Yuqoridagi tadqiqot ishlari natijalaridan kelib chiqib biz o’z ilmiy ishimizda islomiy investitsiyalardan foydalanish niyati, xabardorlik va bilim darajasi, Dasturiy majburiyat, iqtisodiy foydalilik, biznesni rivojlantirish, islom moliya institutlari obro’si, xulq-atvor nazorati, hukumatning qo’llab-quvvatlovi va qonunchilik kabi omillarni latent (yashirin-kuzatilmagan) o’zgaruvchilar sifatida tanlab oldik.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Hududlarda tadbirkorlarning islomiy investitsiyalardan foydalanish niyatlariga ta’sir ko’rsatuvchi omillarni aniqlash maqsadida so’rovnoma asosida empirik tadqiqot o’tkazildi. Respondentlarning savollar mazmunini to’liq anglab yetishlari va aniq javob bera olishlarini ta’minlash uchun barcha savollar soddalashtirilgan, lo’nda va tushunarli tilda tuzildi. Ba’zi murakkab savollar izohli tavsiflar bilan boyitildi. So’rovnoma faqat o’zbek tilida tuzilgan bo’lib, bu holat respondentlar uchun til jihatidan qulaylik yaratdi. Ma’lumotlar 2024–yil davomida Google Forms platformasi orqali onlayn tarzda yig’ildi.

Umumiy hisobda 305 nafar tadbirkor respondent sifatida so’rovnomada qatnashdi. Ularning 95 foizdan ortig’i barcha savollarga to’liq javob bergani sababli hech bir javoblar to’plami tahlildan chiqarib tashlanmadi (Hair va boshq., 2013).

Ma’lumotlarni tahlil qilish ikki bosqichda amalga oshirildi. Dastlabki bosqichda tuzilgan modelning mosligi yashirin (latent) omillar va kuzatilgan o’zgaruvchilar o’rtasidagi bog’liqliklar asosida baholandi. Ikkinchi bosqichda esa strukturaviy tenglamalar modellash (SEM) yondashuvi orqali ilgari surilgan gipotezalarni empirik isbotlash uchun regressiya tahlili qo’llanildi. SEM modeli biznes va boshqaruv sohasidagi tadqiqotlarda xulq-atvor bilan bog’liq yashirin konstruktsiyalar o’rtasidagi murakkab o’zaro munosabatlarni o’rganishda eng samarali va keng qo’llaniladigan yondashuvlardan biri hisoblanadi (Hair va boshq., 2013).

Tadqiqotda ishlab chiqilgan konseptual modelni sinovdan o’tkazish va natijalarni baholash uchun SmartPLS 4.0 ekonometrik modellash dasturidan foydalanildi. Bu dastur PLS-SEM metodologiyasi asosida konstruktiv, ishonchli va tahliliy jihatdan chuqur natijalar olish imkonini berdi.

4 M. Fishbein, I. Ajzen, Understanding attitudes and predicting social behavior, Prentice Hall, Englewood Cliffs, NJUSA, 1980.

5 I. Ajzen, The theory of planned behavior, Organ. Behav. Hum. Decis. Process. 50 (1991) 179–211.

6 I. Ajzen, The theory of planned behavior: reactions and reflections, Psychol. Health 26 (2011) 1113–1127.

7 H. Amin, A. Rahim Abdul Rahman, S. Laison Sondoh, A. Magdalene Chooi Hwa, Determinants of customers’ intention to use Islamic personal financing: the case of Malaysian Islamic banks, J. Islam. Account. Bus. Res. 2 (2011) 22–42.

8 S. Aziz, Z. Afaq, Adoption of Islamic banking in Pakistan an empirical investigation, Cogent Bus. Manag. 5 (2018) 1548050.


9 N.S. Mahdzan, R. Zainudin, S.F. Au, The adoption of Islamic banking services in Malaysia, J. Islam. Mark. 8 (2017) 496–512.

10 J. Mbawuni, S.G. Nimako, Determinants of Islamic banking adoption in Ghana, Int. J. Islam. Middle East. Financ. Manag. 10 (2017) 264–288.

11 M.A. Jaffar, R. Musa, Determinants of attitude towards Islamic financing among Halal-certified micro and SMEs: a preliminary investigation, Procedia Soc. Behav. Sci. 130 (2014) 135–144.

12 M.A. Jaffar, R. Musa, Determinants of attitude and intention towards Islamic financing adoption among non-users, Procedia Econ. Financ. 37 (2016) 227–233.

13 O. Boubker, K. Douayri and A. Ouajdouni Factors affecting intention to adopt Islamic financing: Evidence from Morocco. / MethodsX 8 (2021) 101523



1-rasm. Konseptual asos¹⁴.

Shuningdek, mustaqil o'zgaruvchilar va qaram o'zgaruvchilar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish uchun o'lchov modeli (measurement model) va tizimli model (structural model) ni tahlil qilish uchun PLS SEM algoritmi amalga oshirildi. Mustaqil o'zgaruvchilarning qaram o'zgaruvchilarga maxsus va umumiy bilvosita ta'sirini aniqlash uchun vositachilik (mediation) va moderatsiya (moderation) tahlili o'tkazildi.

Regressiya modeli: $Y = a + bX_i + e$ ("a" o'zgarmas, "e" esa modeldagi xatolikni ifodalaydi).

Bog'liq o'zgaruvchi (Y): Islomiy investitsiyalardan foydalanish niyati.

Mustaqil o'zgaruvchilar (Xi): xabardorlik va bilim darajasi, Dasturiy majburiyat, iqtisodiy foydalilik, biznesni rivojlantirish, islom moliya institutlari obro'si, xulq-atvor nazorati, subyektiv normalar, hukumatning qo'llab-quvvatlovi va qonunchilik.

Yuqoridagi adabiyotlarni o'rganib chiqqanimizdan so'ng, ushbu tadqiqotimizning kontseptual asosini shakllantirdik.

Shunga ko'ra, biz 1-rasmda keltirilgan ilmiy faraz (gipoteza)larni ilgari surdik. Bu yerdagi H harfi ingliz tilidagi hypothesis (gipoteza, ilmiy faraz) ning bosh harfi hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotimizning keyingi qismida hududlarda tadbirkorlarning islomiy investitsiyalardan foydalanish niyatlariga undovchi omillarning empirik tadqiqotlarini xalqaro darajadagi olimlari orasida keng qo'llaniladigan Smart-PLS 4.0 ekonometrik modellash tirishda yashirin, kuzatilmagan (latent) o'zgaruvchilar ustida amallarni bajarishga ixtisoslashgan maxsus dasturiy ta'minotidan foydalangan holda PLS-SEM modelida tahlil qilamiz. Quyida ushbu modelimiz bo'yicha strukturaviy modelimiz va yuqorida keltirib o'tganimizdek gipotezalarimiz (ilmiy farazlarimiz)ni isbotlash maqsadida PLS-SEM modelimizning grafik ko'rinishini taqdim etdik (2-rasm).

Modelimizni baholashning birinchi bosqichida o'lchov modeli (Measurement model) testlari (Convergent validity va discriminant validity) dan muvaffaqiyatli o'tgandan so'ng, keyingi bosqichda Smart-PLS 4.0 dasturida strukturaviy model baholash (Structural model evaluation) sinovlarini olib borishdan iborat. Bu baholash bosqichida determinatsiya koeffitsienti, ta'sir hajmi (effect size), modelning qanchalik darajada yaxshi


14 Muallif tomonidan tuzilgan



moslik indeksi (goodness-of-fit-index) va ilmiy faraz yoki gipoteza testlari (hypotheses testing) da PLS-SEM modeli tekshirildi va bu baholash sinovlaridan ham modelimiz muvafaqqiyatli o'tdi va modelimizni hududlarda tadbirkorlarning islomiy investitsiyalardan foydalanish niyatlariga undovchi omillarni tahlil qilish uchun foydalanishga asos bo'ldi.

Yuqoridagi 2-rasmda keltirib o'tgan ushbu modelimizni grafik shaklini tahlil natijalarini ham keltirib o'tamiz. Ushbu tadqiqotda taklif etilayotgan modelni sinab ko'rish uchun 13 ta faraz mavjud bo'lib, ulardan 1 tasi to'g'ridan-to'g'ri, 5 tasi bilvosita (vositachi), 4 ta moderator sifatida qamrab olingan. Mazkur modelimiz natijalariga ko'ra, tadbirkorlar orasida islomiy investitsiyalardan foydalanish niyatlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiluvchi yashirin (latent) o'zgaruvchilar bo'yicha qo'yilgan gipotezalarning barchasi statistiklik ahamiyatga ega ya'ni ta'sir qilganligi aniqlandi. Jumladan, xabardorlik va bilim darajasining Dasturiy majburiyat va subyektiv normalarga ta'siri bo'yicha t test qiymatlari >1.96 dan katta va p-qiymati esa <0.05 dan kichikni tashkil etgan.

Shuningdek, xulq-atvornazorati, Dasturiy majburiyat, biznesni rivojlantirish va qonunchilik o'zgaruvchilarining islomiy investitsiyalardan foydalanish niyati nomli moderator latent o'zgaruvchisiga ta'siri bo'yicha t-test qiymatlari >1.96 dan katta va p-qiymati esa <0.05 dan kichikni tashkil etgan bo'lsa, hukumatning qo'llab-quvvatlovi qonunchilikka ta'siri bo'yicha ham ushbu testlardan muvafaqqiyatli o'tib qabul qilish mumkinligini ko'rsatgan.



2-rasm. PLS-SEM modeli (Strukturaviy modelning yo'lak (Path) koeffitsiyentlari, ishonchlik darajasi qiymati (p-value) va (R²) determinatsiya koeffitsiyentlari.

Bundan tashqari, gipotezamizdan o'rin olgan bilvosita ta'sir etuvchi latent o'zgaruvchilarimiz Dasturiy majburiyatlarning xulq-atvor nazoratiga va islom moliyasining biznesni rivojlantirish imkoniyatlarining islomiy moliya institutlari obro'siga, hukumat qo'llab-quvvatlovining qonunchilikka ta'siri bo'yicha t-test qiymatlari >1.96 dan katta va p-qiymati esa <0.05 dan kichikni tashkil etgan. Ammo, ikkita gipotezamiz ya'ni H10 va H11 - Islomiy moliya institutlari obro'si va subyektiv normalarning islomiy investitsiyalardan foydalanish niyatiga ta'siri ko'rsatishi bo'yicha p-qiymati 0.57 va 0.91 mos ravishda tashkil qilgani ya'ni >0.05 dan katta bo'lganligi uchun, ushbu gipotezamizlarimiz qabul qilinmadi (rad etildi).

1-jadval. Strukturaviy modelning R^2 determinatsiya koeffitsientlari.

	R^2	R^2 me'yorlashtirilgan determinatsiya
Dasturiy majburiyat	0,072	0,069
Subyektiv normalar	0,431	0,426
IsM foydalanish niyati	0,423	0,411
IsM institutlarining obro'si	0,575	0,574
Qonunchilik	0,137	0,134
Xulq-atvor nazorati	0,256	0,254

R^2 me'yorlashtirilgan determinatsiya koeffitsientlari bo'yicha natijaga to'xtaladigan bo'lsak, Cohen (1988) ga ko'ra, R^2 0.26 dan yuqori bo'lsa muhim (yuqori) ko'rsatkich sifatida ko'riladi, bog'liq o'zgaruvchimiz bo'lgan islomiy investitsiyalardan foydalanish niyatining R^2 me'yorlashtirilgan determinatsiya koeffitsienti 0.41 ni tashkil etgan bo'lib, modelimizda ushbu latent o'zgaruvchiga ta'sir qiluvchi o'zgaruvchilar bog'liq o'zgaruvchimiz o'zgarganida, ushbu o'zgarishning 41 foiz qismiga daxldor bo'lishini ko'rsatadi.

R^2 me'yorlashtirilgan determinatsiya koeffitsientlari bo'yicha moderator latent o'zgaruvchilarimiz Dasturiy majburiyat 7 foiz, subyektiv normalar 43 foiz, islomiy moliya institutlarining obro'si 57 foiz, qonunchilik 13 foiz va xulq-atvor nazorati 25,4 foiz koeffitsientlarini tashkil etgan bo'lib, barcha moderator latent o'zgaruvchilarimizning R^2 me'yorlashtirilgan determinatsiya koeffitsientlari ijobiy natijalarni qayd etganini ko'rishimiz mumkin.

2-jadval. PLS-SEM modeli (Strukturaviy modelning yo'lak (Path) koeffitsiyentlari va ishonchlik darajasi qiymati (p-value)).

	Yo'lak (Path) koeffitsiyentlari	Ishonchlik darajasi qiymati (P value)
Biznesni rivojlantirish -> IsM foydalanish niyati	0,200	0,032
Biznesni rivojlantirish -> IsM institutlarining obro'si	0,758	0,000
Dasturiy majburiyat -> IsM foydalanish niyati	0,174	0,013
Dasturiy majburiyat -> Xulq-atvor nazorati	0,506	0,000
Hukumatning qo'llab-quvvatlovi -> Qonunchilik	0,370	0,000
Hukumatning qo'llab-quvvatlovi -> Subyektiv normalar	0,496	0,000
Iqtisodiy foydalilik -> Subyektiv normalar	0,247	0,000
IsM institutlarining obro'si -> IsM foydalanish niyati	0,052	0,568
Qonunchilik -> IsM foydalanish niyati	0,221	0,000
Subyektiv normalar -> IsM foydalanish niyati	0,007	0,909
Xabardorlik va bilim -> Dasturiy majburiyat	0,268	0,000
Xabardorlik va bilim -> Subyektiv normalar	0,108	0,019
Xulq-atvor nazorati -> IsM foydalanish niyati	0,202	0,001

Demak, modelimiz barcha ishonch testlaridan muvaffaqiyatli o'tgandan so'ng tadbirkorlarning islomiy investitsiyalardan foydalanish niyatlarida ushbu modelimizda qamrab olgan latent o'zgaruvchilarimizning qanchalik darajada ta'sir qilishini aniq qiymatlarda ko'rib chiqamiz. Tadbirkorlarning islomiy investitsiyalardan foydalanish niyatlariga eng katta ta'sir qiluvchi omillar sifatida biznesni rivojlantirish imkoniyatlari, islom moliyasi bo'yicha qonunchilikni qabul qilinishi, tadbirkorlarning xulq-atvor nazorati va Dasturiy majburiyati kabilar ekanligi ayon bo'ldi. Ya'ni islom moliyasining biznesni rivojlantirish imkoniyatlari (to'g'ridan-to'g'ri ta'sir) bir birlikka o'zgarishi tadbirkorlarning islomiy investitsiyalardan foydalanish niyatlarini 0.20 birlikka oshirar ekan. Shuningdek, islom moliyasi bo'yicha mamlakatda qonunchilik (bu moderator latent o'zgaruvchi) ni qabul qilinishi bo'yicha bir birlikka ijobiy o'zgarish tadbirkorlarning islomiy investitsiyalardan foydalanish niyatlarini 0.22 birlikka oshirar ekan. Qonunchilikni qabul qilinishidagi ijobiy holatlarni yaxshilanishiga hukumatning islom moliyasini qo'llab-quvvatlovining 0.37 birlikka ta'sir qilishi ortidan amalga oshishi natijasida sodir bo'lishi o'z tasdig'ini topdi. Shuningdek, tadbirkorlarning islom moliyasi bo'yicha xabardorlik va bilim darajalarining bir birlikka yaxshilanishi



ularning Dasturiy majburiyatlarini 0.27 birlikka yaxshilanishiga sabab bo'lib, buning ta'siri ostida tadbirkorlarning Dasturiy majburiyatlarining bir birlikka yaxshilanishi ularning islomiy investitsiyalardan foydalanish niyatlarini 0.17 birlikka yaxshilanishiga olib kelar ekan. Bundan tashqari, tadbirkorlarning Dasturiy majburiyatlarining bir birlikka yaxshilanishi ularning islom moliyasi bo'yicha xulq-atvor nazoratlarini 0.51 birlikka yaxshilanishiga olib kelib, buning ta'siri ostida tadbirkorlarning xulq-atvor nazoratlarining bir birlikka yaxshilanishi ularning islomiy investitsiyalardan foydalanish niyatlarini 0.20 birlikka yaxshilanishiga sabab bo'lar ekan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qurgan PLS-SEM modelimiz tahlili natijalari bo'yicha qisqacha xulosa qiladigan bo'lsak, ilgari surgan 13 ta ilmiy farazlarimizdan faqat H10 va H11 gipotezalarimiz (ilmiy farazlarimiz) o'z tasdig'ini topmadi (rad etildi). Qolgan barcha ilmiy farazlarimiz o'z isbotini topdi. Demak, yuqorida ko'rib chiqqanimizdek, tadbirkorlarning islomiy investitsiyalardan foydalanish niyatlaridagi ijobiy o'zgarishlar modelimizda qamrab olgan latent o'zgaruvchilar orqali sodir bo'lishida o'rni yuqori ekan. O'z o'rnida ushbu mustaqil latent o'zgaruvchilarining ijobiy holatga kelishi uchun olib boriladigan chora-tadbirlarning natijasida mamlakatda islomiy investitsiyalardan foydalanish bo'yicha ko'proq ijobiy natijalarni kelib chiqishiga sabab bo'lar ekan. Jumladan, hududlarda tadbirkorlarning islomiy investitsiyalardan foydalanish niyatlariga ta'sir qiluvchi omillar sifatida PLS-SEM modelimizda qamrab olgan xabardorlik va bilim darajasi, Dasturiy majburiyat, biznesni rivojlantirish, hukumatning qo'llab-quvvatlovi, xulq-atvor nazorati va qonunchilik kabi mustaqil (latent) o'zgaruvchilarning roli bo'yicha ilgari surilgan ilmiy farazlar (gipotezalar) model natijalariga ko'ra o'z tasdig'ini topdi. Shuningdek, islom moliyasining iqtisodiy foydaliligi va islom moliya tashkilotlarining obro'si tadbirkorlarning islom moliyasiga bo'lgan ijobiy munosabatlariga ta'sir qilishi o'z isbotini topdi.

O'z o'rnida taklif sifatida keltirishimiz joizki, agar hukumat, hududlarning ma'muriy boshqaruvi va institutsional investorlar tomonidan ushbu mustaqil latent o'zgaruvchilarining ijobiy holatga kelishi uchun tizimli chora-tadbirlar amalga oshirib borilsa, mamlakat hududlarida islomiy investitsiyalardan foydalanishni kengayishi borasida ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. S.Z. Maryam, A. Ahmad, N. Aslam, S. Farooq, Reputation and cost benefits for attitude and adoption intention among potential customers using theory of planned behavior: an empirical evidence from Pakistan, J. Islam. Mark (2021) ahead- of-print, doi:10.1108/JIMA- 03-2021-0059.
2. M.A. Jaffar, R. Musa, Determinants of attitude and intention towards Islamic financing adoption among non-users, Procedia Econ. Financ. 37 (2016) 227-233.
3. S. Lujja, M. Omar Mohammad, R. Hassan, Modeling public behavioral intention to adopt Islamic banking in Uganda: the theory of reasoned action, Int. J. Islam. Middle East. Financ. Manag. 9 (2016) 583-600.
4. N.S. Mahdzan, R. Zainudin, S.F. Au, The adoption of Islamic banking services in Malaysia, J. Islam. Mark. 8 (2017) 496-512.
5. I. Butt, N. Saleem, H. Ahmed, M. Altaf, K. Jaffer, J. Mahmood, Barriers to adoption of Islamic banking in Pakistan, J. Islam. Mark. 2 (3) (2011) 259-273, doi:10.1108/1759083111116 4787.
6. M. Fishbein, I. Ajzen, Understanding attitudes and predicting social behavior, Prentice Hall, Englewood Cliffs, NJUSA, 1980.
7. I. Ajzen, The theory of planned behavior, Organ. Behav. Hum. Decis. Process. 50 (1991) 179-211.
8. I. Ajzen, The theory of planned behavior: reactions and reflections, Psychol. Health 26 (2011) 1113-1127.
9. H. Amin, A. Rahim Abdul Rahman, S. Laison Sondoh, A. Magdalene Chooi Hwa, Determinants of customers' intention to use Islamic personal financing: the case of Malaysian Islamic banks, J. Islam. Account. Bus. Res. 2 (2011) 22-42.
10. S. Aziz, Z. Afaq, Adoption of Islamic banking in Pakistan an empirical investigation, Cogent Bus. Manag. 5 (2018) 1548050.
11. N.S. Mahdzan, R. Zainudin, S.F. Au, The adoption of Islamic banking services in Malaysia, J. Islam. Mark. 8 (2017) 496-512.
12. J. Mbawuni, S.G. Nimako, Determinants of Islamic banking adoption in Ghana, Int. J. Islam. Middle East. Financ. Manag. 10 (2017) 264-288.
13. M.A. Jaffar, R. Musa, Determinants of attitude towards Islamic financing among Halal-certified micro and SMEs: a preliminary investigation, Procedia Soc. Behav. Sci. 130 (2014) 135-144.
14. M.A. Jaffar, R. Musa, Determinants of attitude and intention towards Islamic financing adoption among non-users, Procedia Econ. Financ. 37 (2016) 227-233.
15. O. Boubker, K. Douayri and A. Ouajdouni Factors affecting intention to adopt Islamic financing: Evidence from Morocco. / MethodsX 8 (2021) 101523
16. Hair, J.F., Ringle, C.M. and Sarstedt, M. (2013), "Partial least squares structural equation modeling: Rigorous applications, better results and higher acceptance", Long Range Planning, Vol. 46 No. 1, pp. 1-12.
17. Shavkat Mirziyoyev, 'President Shavkat Mirziyoyev's Address to the Oliy Majlis' (President of the Republic of Uzbekistan, 29 December 2020) accessed 31 March 2023.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>